

01/4-02-05-47/2
13.05.2022-y.



TASDIQLAYMAN»
Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i
D. Musinov

Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022-yil 12-mayda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi

BAYONI № 9

2022-yil 12-may

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: D. Musinov Boshqarma boshlig'i
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari,
Komissiya a'zolari, boshqarma hamda
shahar, tuman statistika bo'limlari
boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi yuzasidan statistika sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, interaktiv davlat xizmatlarining ko'lamini yanada kengaytirish va joriy etish hamda elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash to'g'risida.

(D.Musinov, Sh.Abdiyev, A.Suyunov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, D.Musinov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i D. Musinov so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar muhokama qilindi.

Respublikada davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi ta'kidlab o'tdi.

Jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan 73 turdagi ma'lumotnoma va hujjatlar taqdim etilishi talabi bekor qilinib, davlat organlari tomonidan ushbu ma'lumotlarni "Elektron hukumat" tizimi idoralariaro integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda olish tizimi joriy etilganligi, shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini qulay va oson shakllarda ko'rsatish ko'lamini oshirish va fuqarolarning idorama-idora sarson bo'lib yurishining oldini olish, davlat organlari axborot tizimida mavjud ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish zarurligi, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat xizmatlari

ko'rsatish ko'lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, bu borada barcha uchun teng sharoitlarni yaratish orqali inklyuziv muhitni shakllantirish maqsadida quyidagi tartiblar belgilanganligini ta'kidlab o'tdi:

2022- yil 1- avgustdan boshlab, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalariga qo'shimcha ravishda jismoniy shaxsni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimi (keyingi o'rinlarda - Mobil-ID tizimi) joriy etilishi;

Mobil-ID tizimi "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash bo'yicha yagona axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va shaxsni uning mobil telefon raqami orqali identifikatsiyalashni nazarda tutadi;

shaxsni Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyalash fuqaroning xohishiga ko'ra davlat xizmatlari markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) yoki notarial idora tomonidan yoxud Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (keyingi o'rinlarda - YIDXP) mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi;

Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyadan o'tish uchun fuqaro tomonidan bevosita Markaz yoki notarial idoraga murojaat qilinganda shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asli taqdim etiladi hamda Markaz yoki notarial idora xodimi tomonidan fuqaroning yuzi raqamli formatda rasmga tushiriladi, elektron shaklda qo'l barmog'i izi olinadi va mobil telefon raqami YIDXPdagi shaxsiy kabinetga bog'lanadi;

Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyadan o'tish uchun fuqaro tomonidan YIDXPning mobil ilovasidan foydalanilganda masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) usuli yoki ID-kartadagi elektron raqamli imzo qo'llaniladi hamda mobil telefon raqami YIDXPdagi shaxsiy kabinetga bepul bog'lanadi;

bevosita Markazlar yoki notarial idora orqali fuqarolarni Mobil-ID tizimiga identifikatsiya qilish 2022- yil 31- dekabrga qadar to'lov undirilmadan, 2023- yil 1- yanvardan boshlab bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizi miqdorida bir martalik to'lov undirilgan holda amalga oshirilishi;

Mobil-ID tizimi foydalanuvchilari elektron raqamli imzoni qo'llamagan holda barcha davlat xizmatlaridan (bundan moliyaviy xizmatlar mustasno) foydalanishi mumkinligi;

fuqaroning YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuboriladigan barcha xabarnomalar uning xohishiga ko'ra va belgilangan to'lovlar asosida Mobil-ID tizimi orqali identifikatsiyalangan mobil telefon raqamiga SMS-xabar shaklida yuboriladi.

Mobil-ID tizimini joriy qilish va kelgusida texnik qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlar Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan teng miqdorda yoxud qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda Adliya vazirligining kelgusi besh yillikdagi ustuvor faoliyat yo'nalishlari etib belgilanganligi:

"Davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqaro e'tibor markazida" (Citizen - centric service) tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini modernizatsiya qilinishi;

Markazlar faoliyatida qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytirish, aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanish darajasini keskin oshirish hamda ish yuritishni "qog'ozsiz" tamoyil asosida olib borilishi;

biznes jarayonlarini modernizatsiyalash usullari (Business Process Reengineering) asosida har bir davlat xizmatini maqbullashtirish, shu jumladan muddatlar va talab etiladigan hujjatlar sonini maksimal darajada qisqartirish orqali "bir darcha" tamoyilini amaliyotga to'liq tatbiq etilishi;

ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanishning joriy holati, aholi va tadbirkorlik subyektlarining ehtiyoji va talablaridan kelib chiqib davlat xizmatlarining yangi turlarini yo'lga qo'yish hamda o'z ahamiyatini yo'qotgan davlat xizmatlarini birlashtirish yoki bekor qilinishi;

jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda inklyuziv muhitni yaratilishi;

davlat organlarining tashabbusi asosida proaktiv davlat xizmatlari hamda bitta so'rov bo'yicha o'zaro bog'liq kompozit davlat xizmatlari ko'rsatish amaliyotini kengaytirish hamda o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini oshirib borish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot berib o'tdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i D. Musinovning statistika sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva) va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Agarda, mas'ul xodimlar tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikga muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov